
Muallim fidoyi va tashabbuskor bo'lishi kerak

Inson hayotda mehnati, olib borayotgan xayrli va ibratli ishlari bilan qadr topadi. Oramizda yana shunday insonlar borki, ular o'z zimmasidagi vazifani ado etishga nafaqat bilimi, salohiyati, balki qalb qo'rini, butun mehrini baxshida etadi. Kasbiga bo'lgan sadoqati, fidoyiligi tufayli el-yurt orasida hurmat-e'tibor topadi. Tumanimizdagi 26-umumiy o'rta ta'lim maktabi Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Shahodatxon Mirazizova haqida so'z ketganda shuurimizga beixtiyor yuqoridagi fikrlar keladi. O'z kasbining yetuk bilimdoni, yoshlarning jonkuyar ustoz, ularning kamoli uchun sidqidildan mehnat qilayotgan Sh. Mirazizovaning olib borayotgan ibratli faoliyati alohida e'tirofga sazovor. 1988 yilda Xo'jand davlat pedagogika institutini tamomlab, mehnat faoliyatini 11-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qituvchilikdan boshlagan. Mana 34 yildirki, u kasbining yetuk mutaxassisi sifatida samarali mehnat qilib, o'quvchilarga ta'lim va tarbiyadan saboq berib kelmoqda. O'tgan shu davr mobaynida minglab o'quvchilarning puxta bilim olishi va kamol topishida uning xizmatlari katta bo'ldi. E'tirof etish kerakki, Shahodat opa mehnat faoliyati davomida doim izlandi, o'z ustida ishladi, o'qidi, o'rgandi. Ish jarayonida noan'anaviy usullar, ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tishga alohida e'tibor qaratdi, uslubiy tavsiyanomalar ishlab chiqdi. Bugun Sh. Mirazizova kasbining yetuk mutaxassisi, mohir va fidoyi o'qituvchi, 3 nafar farzandni kamolga yetkazayotgan ibratli oila bekasi sifatida, qolaversa, tashabbuskor, intiluvchan va tashkilotchiligi bilan nafaqat hamkasblari, balki keng jamoatchilik orasida hurmat-e'tibor topdi. Fidoyi, tinib-tinchimas ustoz o'quvchilarga puxta bilim berish bilan birga ularni milliy qadriyatlarimiz, istiqlol g'oyalariga, qadim tariximizga hurmat ruhida tarbiyalashga ham alohida e'tibor qaratadi. – Bilimli, yuksak salohiyatli va barkamol avlodni tarbiyalash biz pedagoglarning zimmasidagi eng muhim vazifa, – deydi Sh. Mirazizova. – Ana shu vazifani bekamu ko'st ado etish uchun muallim fidoyi va tashabbuskor bo'lishi kerak. Darhaqiqat, har bir kasb, ayniqsa ta'lim sohasi fidoyilikni talab etadi. Kimki o'z ishiga mehr qo'yib mehnat qilsa, albatta, el-yurt orasida qadr topadi, shogirdlarining hurmat-e'tirofiga sazovor bo'ladi. Sh. Mirazizova ana shunday qadr va e'tirof topa olgan fidoyi zamondoshlarimizdan biridir.

**Maxpiratxon ISMATOVA,
Mahbubaxon MAXSUDOVA.**

2022-09-28 05:55:40